



ZANJIRBAND QALB YOXUD QAYERLARDA QOLDING, EY
O‘ZIM?

Ibragimova Mashhura Mahmudjon qizi

Urganch davlat universiteti Filologiya

va san'at fakulteti 1-kurs talabasi

Annotasiya. Maqolada adabiyotning sehrli kuchi, inson qalbini tarbiyalashdagi beqiyos o‘rni hamda Rauf Parfi ijodining o‘ziga xos falsafiy va ruhiy iztiroblar bilan boyitilgan jihatlari yoritilgan. Shoirning “Bir lahza dostoni” she’ridan olingan misralar asosida o‘zlikni yo‘qotish, insonning ruhiy sarsonligi va zamon bilan kurash masalalari badiiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, Rauf Parfi, “Bir lahza dostoni”, o‘zlik, iztirob, ruhiy sarsonlik, ramzlar, sham, yaproq, zanjir, falsafa, zamon, she’riyat.

Annotation. The article highlights the magical power of literature, its unique role in shaping the human soul, and the philosophical and spiritual complexities in the works of Rauf Parfi. Using lines from the poem “Bir lahza dostoni,” it analyzes the loss of self, spiritual turmoil, and the struggle with time through an artistic lens.

Keywords: Literature, Rauf Parfi, “Bir lahza dostoni”, selfhood, anguish, spiritual turmoil, symbols, candle, leaf, chain, philosophy, time, poetry.

Аннотация. В статье освещается волшебная сила литературы, её уникальная роль в воспитании души человека, а также философские и духовные аспекты творчества Rauf Parfi. На примере строк из стихотворения «Bir lahza dostoni» проводится художественный анализ потери себя, духовного смятения и борьбы с временем.

Ключевые слова: Литература, Rauf Parfi, «Bir lahza dostoni», самость, страдание, духовное смятение, символы, свеча, лист, цепь, философия, время, поэзия.

Adabiyot - sehr. Adabiyot - mo'jiza! Adabiyot - hayrat lahzasi!



Agar u mo'jiza bo'lmaganida, inson yaralganidan to hozirga qadar yetib kela olarmidi? Ne-ne mustahkam binolar, ne-ne buyuk tarixiy obidalar boqiylik sinovlaridan o'ta olmagan-u, ko'zga ko'rinmas, qo'l bilan ushlab bo'lmas so'z orqali yaralgan adabiyot asrlar silsilasiga dosh berib bizgacha yetib kelsa?! Zamon-u makon tanlamay insonlar xotirasida abadiy yashasa...

Insonning qalbini katta bir koshonaga qiyos etsak, adabiyot uning yagona darvozasidir. Anglaganimizdek, ushbu koshonaga adabiyot, ya'ni sohir so'z orqaligina kirish mumkin. Shuning uchun she'r yaratish, umuman olganda, ish quroli so'z bo'lgan san'at asarini yaratish yuki og'ir vazifa hisoblanadi. U hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. U - titroq lahza, u - betakror lahza. . Shu boisdan bo'lsa kerak, menda ijod ahli uchun g'ayritabiiy mehr va qiziqish bor.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov: " Yaxshi she'r yaxshi shoir kabi noyob hodisa. Chinakam shoir har yili chiqavermagandek, chinakam yaxshi she'r hatto eng ulkan shoirlarga ham har kuni nasib bo'lavermaydi. Shunday she'r paydo bo'lgan kun esa faqat shoir uchun emas, butun she'riyat uchun bayram bo'ladi" ,- degan edilar. Shunday bo'lsa-da, Vatanimizning suyuqli shoiri, o'zining ayricha ovozigga ega iste'dodli ijodkor Rauf Parfi she'rini yaratgan har bir kunni o'zbek she'riyati uchun bayram bo'lganligini iqror etmay ilojimiz yo'q.

...Men gohida o'ylab hayron qolaman: asl baxt nimada o'zi? Nima qilsam, xursand bo'laman? Baxt- bu hayotda borligimiz, sog'ligimiz, nafas olayotganligimiz, oilamiz, maktabimiz, ustozlarimiz... Noshukurlik bo'lmasin-u, negadir bular meni sevintira olmaydi. Ma'yus o'yga tolaman. O'ylab o'yimga yetolmayman... Aytishlaricha, bunday paytda insonlar o'zini qidirib topa olmayotgan bo'lar ekan... Siz o'zingizni yo'qotib ko'rganmisiz? Balk, ota-bobolarimizning "O'zidan ketdi" iborasi bekordan bekorga o'ylab topilmagandir-a? Insonning "men"i va "o'z"i alohida-alohida mavjudlik sanalar?

Bir kun uyg'onasiz... Ko'zguga qaraysiz, lekin o'sha ko'zlar ortida kim yashayotganini tanimaysiz. Xuddi siz o'zingiz emasdek. Qiziqishlar o'zgargan, yurak avvalgidek urayotgani yo'q, do'stlar bilan ham suhbat qurish biroz g'alati tuyuladi. O'zimizdan o'zimiz begonalashib qolayotgandek...



"- Nima bo'ldi?

-Hech narsa."

Hayot sekin-sekin o'zgartiradi. Ba'zida asta, ba'zida shunday kuch bilanki, biz sezmagan holda o'zimizdan uzoqlashib ketamiz. Go'yoki bizdan yangi odam paydo bo'lib qolgandek. Lekin... o'sha yangi odamni biz qabul qila olamizmi? Qiziqishlari, istaklari, xarakteri avvalgiday emas. Bu — yo'qolishmi yoki o'zingizni qaytadan topish yo'lidagi adashishmi? Farqlay olmay qolaman ba'zida. Atoqli hurfikr shoir - Rauf Parfining "Bir lahza dostoni" she'ri bu boradagi fikrlarimni teranlashtirdi.

Men o'zimni yo'qotdim tamom,

Men o'zimni yo'qotdim shu zum.

Qayonlarda, ayting, bu zamon,

Qayonlarda qolibdir o'zim?

Bu satrlarda shoir she'rini kuchli ruhiy iztirob, dard bilan boshlaydi. "Yo'qotdim" so'zi jismiy yo'qolishni emas, balki ruhiy jihatdan g'oyib bo'lishni, ya'ni ichki dunyo, qalb va o'zlikning yo'qolishini anglatib kelmoqda. Bunday pallada inson o'zini qorong'i o'rmonda adashgan yo'lovchiga yoki shamolda beiz uchib ketgan bargga o'xshatadi – yo'nalishi, tayanchi yo'q. "Shu zum" esa hammasi birdaniga, kutilmaganda ro'y berganini ko'rsatadi.

"Qayonlarda, ayting, bu zamon,

Qayonlarda qolibdir- o'zim? "

Bu misralarda esa zamon bilan inson o'zligi o'rtasidagi ziddiyatli kurash tasvirlanadi. Go'yo vaqt insonning ko'z o'ngida hammasini tortib ketayotgandek... "Qayonlarda qolibdir – o'zim?" – degan so'roq orqali shoir o'zini axtarib topa olmayotgani, o'zini "yarim odam"dek his qilayotgani aks etgan. Umuman olganda, bu to'rtlikda inson o'zligining yo'qolib ketayotgani, zamon oqimlari aro sarson-sargardon bo'lgan shaxsiyat haqida gap bormoqda.. Shoir hammani birdek o'ylashga majbur qiladi: o'zligimiz qayerda qolib ketmoqda – zamon changalidami yo orzularimiz sarobida? Balki, kimlargadir o'xshashga urinib, allaqanday "tole qarg'agan zot"larga taqlid qilib undan judo bo'layotgandirmiz...



Bir kimsaning qoshida balki
Titrab turar sham kabi g‘arib.
Ko‘chalarda tentirar, yoki
Dodlab yurar meni axtarib.

Bu satrlarda shoir o‘zlikni shamga qiyos etgani bejiz emas. Chunki ko‘pgina ijodiy asarlarda sham o‘z umrini boshqalar uchun yashab o‘tayotgani to‘g‘risidagi fikrlar uchraydi. Bu yerda ham shoir o‘zligimiz o‘zimiz uchun emas, boshqalarga xizmat etayotganligidan kuyinmoqda. "Dodlab yurar meni axtarib" jumlasida esa o‘zligimiz ham xor bo‘lib bizni qidirayotgani bizni yana bir bor mushohada yuritishga chorlaydi.

Shunday sarson, shunday sargardon,
Yuragida lahzalik qayg‘u.
Qay odamning ko‘ziga nolon,
Najot tilab termularkin u.

Bir lahzalik erur bu sitam,
Lahzagina yig‘laydi ko‘zim-
Yaproq kabi oyoq ostida
Xazon bo‘lgan, ey mening o‘zim.

Bu satrlardagi sarson-sargardon o‘zlik hayot yo‘lidan adashgan, ichki osoyishtaligini yo‘qotgan qalb obrazidir. "Lahzalik qayg‘u" — inson qayg‘ularining abadiy emasligini, balki shamol kabi bir zum kelib, bir zumda ketishini bildiradi.

“Qay odamning ko‘ziga nolon,
Najot tilab termularkin u.”

Shoir nolon ko‘z timsoli orqali og‘ir iztirobli vaziyatni tilga oladi. Go‘yo bu ko‘zlar — umidni qidirayotgan qush kabi: parvoz qilishga ojiz, ammo najot manzilini topishga intilish kuchli. Termulish esa eng so‘nggi umid.

“Bir lahzalik erur bu sitam,



Lahzagina yig‘laydi ko‘zim”

Shoir o‘zini ovutadi: dard ham, iztirob ham abadiy emas. Bu yerda qayg‘u xuddi ko‘kka chiqqan yomg‘ir tomchisiga o‘xshaydi: ko‘z yosh bo‘lib tushadi, lekin tezda quriydi. Shoirning falsafiy qarashlaridan biri bu hayotdagi og‘irliklarning abadiy emasligidir.

“Yaproq kabi oyoq ostida

Xazon bo‘lgan, ey mening o‘zim.”

Eng kuchli badiiy obraz shu yerda: inson o‘zini kuz faslidagi xazon yaprog‘iga qiyoslaydi. Bu yaproq hayotini yashab bo‘lgan, shamol, ya‘ni shiddatli zamon uni yerga tashlagan, oyoq ostida qoldirgan. Bu inson o‘zini, qadrsiz his etishiga sabab bo‘lmoqda. Shoir o‘zining ruhiy ojizligini tabiat obrazlari orqali ochib beradi.

Lahzagina yubormas qo‘yib,

Kimdir zanjir bilan bog‘labdi.

Kimdir: "Senga o‘zlik nima?" deb

O‘ldirmoqqa meni chog‘labdi...

Shoir qalbi go‘yo ko‘rinmas zanjirlarga chirmashib, ozodlikdan mahrum qolgandek. Bu zanjir — tashqi dunyoning bosimi, ichki iztirob yoki jamiyatning hukm qiluvchi qo‘llarini eslatadi. “Kimdir” obrazi esa noma‘lum, ammo doim mavjud kuchni anglatadi: u har kim bo‘lishi mumkin — hukmron tuzum, odamlarning qarashlari, hatto insonning o‘z vijdoni.

“Lahzagina yubormas qo‘yib” degan jumla, ozodlikka intilgan qalbning bir zum ham erkin nafas ola olmasligini ko‘rsatadi. O‘zlikni yo‘qotish — inson uchun eng og‘ir sinov. “Senga o‘zlik nima?” degan savol esa shunchaki so‘roq emas, balki tahdid. Bu savolni bergan kuch shoirning mavjudligiga, shaxsiyligiga hujum qilmoqda. O‘zlikni bilmagan, uni saqlab qololmagan inson yo‘q bo‘lib ketadi. Shuning uchun bu savolning ortida “o‘ldirmoq” degan so‘z bejiz emas — o‘zlikdan ajralish, ruhiy o‘limdir.

Rauf Parfi she‘riyati — inson qalbining eng nozik qatlamlariga kirib boruvchi sehrli kalitdir. Uning “Bir lahza dostoni”dagi satrlar o‘zlik va vaqt



o‘rtasidagi abadiy kurashni, insonning ruhiy sarsonligini teran ifodalaydi. Shoirning “men o‘zimni yo‘qotdim” degan iztirobi aslida har birimizning qalbimizda kechadigan ichki savolga aylanadi: biz kim edik va bugun kim bo‘lib qoldik?

Shoirning obrazlari — sham, yaproq, zanjir, ko‘z yoshlari — barchasi hayotiy haqiqatni falsafiy timsolga aylantiradi. Sham o‘z umrini boshqalar uchun yoqadi, yaproq shamolda to‘zg‘ib, oyoq ostida xazon bo‘ladi, zanjir esa erkinlikni bo‘g‘adi. Ammo shu og‘riqli manzaralar ortida bir haqiqat yashiringan: o‘zlikni yo‘qotish fojia bo‘lsa-da, uni qaytadan izlash insonni yanada kuchli qiladi.

Demak, Rauf Parfi she‘rida o‘zlik iztirobi nafaqat shoirning, balki butun insoniyatning iztiroblaridir. Har bir satrda qalbning yarasi, ruhning nolasi bor. Shu bois, bu she‘rni o‘qigan kishi ham o‘zini savolga tutadi: “Mening o‘zim qayerda? Men o‘zimni yo‘qotmadimmi?”

Rauf Parfi she‘ri — bu faqat bir shoirning shaxsiy dardi emas, balki millatning, insonning, hatto zamonning ruhiy tarjimasidir. (Tarjima deyotganimning boisi uni hamma ham tushunavermaydi). Uning satrlari bizga har qanday holatda ham o‘zligimizni asl holicha saqlab qolish bosh vazifamiz ekanligini uqtiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Rauf Parfi. Bir lahza dostoni (she‘riy to‘plam).
2. Erkin Vohidov. She‘riyat va hayot. Toshkent, 2019.
3. Abdulla Oripov va zamonaviy o‘zbek she‘riyati. Toshkent, 2020.
4. Nurboy Jabborov. She‘riyat va inson qalbi. Toshkent, 2018.